Qaxxorova Dilraboxon Kasimovna
Andijon viloyati Jalakuduk tuman 1-son kasb-hunar maktabi yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari

KASB-HUNAR MAKTAB YOSHLARINI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MILLIY MA’NAVIYAT VA AXLOQGA TRANSFORMASIYALASH

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb-hunar maktab yoshlarining ijtimoiy faolligi shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy-pedagogik va falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Harbiy vatanparvarlik yoki vatanparvarlik tuyg‘usini o‘quvchi yoshlar ongiga va qalbiga singdirishning ilmiy-pedagogik metodlari va uni amalga oshirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni ko‘rsatib berilgan bo‘lib o‘quvchilarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, sadoqat tuyg‘ulari tahlil qilib berilgan.
Kalit so‘zlar: vatan, harbiy vatanparvarlik, tarbiya, ma’naviy-axloqiy meros, axloqiy ideal, burch, mas’uliyat, qahramonlik, matonat, sadoqat, g‘urur, oriyat.

Jahonda yuz berayotgan turli global o‘zgarishlar bugun yoshlar ongi va qalbiga salbiy ta’sir qilmasdan iloj qolmayabdi. Ayni vaqtda kasb-hunar maktab ostonasini krib kelayotgan bo‘lajak fuqaroga yaxshi kasb va hunar o‘rgatish, iqtisodiy-ijtimoiy va ma’naviy bilim berish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Chunki u bir kun kelib “olaxurjin” bo‘yniga tushgandan so‘ng o‘z fuqarolik, farzandlik ma’suliyatini his qilgan holda vatan oldidagi burchini, majburiyatini bajarishi va sadoqatini ko‘rsatishi lozim bo‘ladi.

Bu borada bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda o‘tmishda yaratilgan ma’naviy meros va harbiy sarkardalar jasoratidan bahramand etishni talab etmoqda. Bu haqda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayoti qadriyatlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi”, deya ta’kidlab o‘tgan edi. Binobarin, xalqimizning buyuk milliy ma’naviyati va axloqiy asoslari va uning tarixini chuqur o‘rganish, anglash orqali Vatanimiz kelajagi hisoblanmish yoshlarimizni yagona maqsad sari muqaddas O‘zbekistonimiz uchun xizmat qilishimiz zarur ekanligini taqozo etmoqda.

Biz o‘tmishdan to‘g‘ri xulosa chiqargan holda vatan himoyasi uchun mardonavar kurashgan buyuk vatandoshlarimiz Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur va Bobur kabi milliy qahramonlarimizning jasoratini o‘quvchi-yoshlarimiz ongiga singdirishimiz ularda vatanga, ota-onasiga, xalqiga bo‘lgan sadoqat va daxldorlik hissini kuchaytirish o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki bugun dunyoda inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tinimisiz kechmoqda. Go‘yo “vatanparvarlik”ning g‘arbcha modelini bizning yoshlarimiz import qilib u-ning ta’sir doirasiga tushib qolmoqda. Alaloqibatda bu model vatanga xiyonat qilish, uni himoya qilish o‘rniga tashlab o‘zga yurtlarga ketish kabi tushinchalarni ommalashishiga olib kelmoqda. Bu borada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning bir qator yo‘llari turibdiki bu-mexanizm ustida ishlashimiz lozim. Va biz ushbu mexanizmlarga to‘xtalib kasb-hunar maktab o‘quvchilarida harbiy vatanparlik ko‘nikmasini shakllantirishda quydagilarni amaliyotga joriy etilishini taklif qilmoqchimiz:

Birinchidan, Globallashuv sharoitida inson qalbi va ongiga rahna soluvchi tahdidlar ortayotganligi tashvishli holdir. Ayniqsa, tashqi ta’sirlar, tazyiqlar, tajovuzlar ortishi, axborot xurujlarining avj olishi dunyo jamoatchiligini jiddiy tashvishga solmoqda. Hozirda dunyo miqyosida tahlikali vaziyatni ortib borayotgani bizdan doimo hushyor, ogoh va sergak

https://wordlyknowledge.uz

bo‘lishni talab etmoqda. Aynan mana shu ulkan muammolarni hal etishni yagona yo‘li o‘quvchi-yoshlarni axborot texnologiyalardan foydalanishda ma’lum bir normalarga ko‘ra yo‘lga qo‘yish ustivor vazifa bo‘lib turibdi.

Ikkinchidan, yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda oilada harbiy savodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish lozim bo‘ldadi. Achchiq bo‘lsa ham haqiqat Sobiq Ittifoq davrida harbiy xizmatga bormagan erkak kishiga qizlar turmushga chiqishdan orlanishgan. Hozir globallashuv shu darajada o‘g‘il bolalarga hayotda yashash darajsini yengil-yelpi qilib ko‘rsatmoqdaki o‘g‘il bolalarning hech biri hayotda biror-bir natijaga qiyinchiliksiz erishish ko‘nikmasiga o‘rganmoqda. Xususan harbiy xizmat ham bundan mustasno emas.

Uchinchidan, Harbiy vatanparvarlik faqat Vatanni sevish yoki yaxshi ko‘rish bilan cheklanmaydi, balki bor kuchi va aql-idrokini Vatanni himoya qilish bilan bog‘liq muammolarni hal etishga safarbar qilishda namoyon bo‘ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlagandek: “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash va o‘qitish, navqiron avlodimizni bizning xalqimizga mutlaqo begona bo‘lgan buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilish masalalariga zarur darajada e’tibor qaratilmadi. Ayniqsa, diniy ekstremizm g‘oyalariga berilib, yo‘ldan adashgan yoshlarni sog‘lom turmush tarziga qaytarishda biz Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan askar va ofitserlarimizning salohiyatidan foydalana olmayapmiz”.

To‘rtinchidan, o‘quvchi-yoshlarmiz ma’naviyatini yuksaltirishda “donar” vazifasini o‘taydigan “kitobxonlik”ni kitob o‘qishini ommalashtirishmiz har qachongidan ham muhim vazifa bo‘lib turibdi. Yoshlarda oilaga sadoqat, vatanga vafodorlik, do‘stga mehr, xalqqa nisbatan oqibatlilikni yuksaltirishda inson ongi va qalbini doim “charx”lab turadigan kitob o‘qishni jamiyatda qoida sifatida kiritishni davrning o‘zi talab qilmoqda. Bu borada Prezident boshchiligida davlat siyosatining tegishli yo‘nalishlari bo‘yicha huquqiy normalar ham ishlab chiqiilib amaliyotga kiritildi.

Vatanparvarlik, xususan, “fuqaro vatanparvarligi” bilan “harbiy vatanparvarlik” tushunchasini bir xil deb qabul qilish noto‘g‘ri. Harbiy qomusiy lug‘atlarda vatanparvarlikning mazmuni “yurtga sodiqlik, Vatanga muhabbat, el manfaatlariga xizmat va mamlakatni dushmandan himoya qilish”, deb talqin etiladi. Umuman olganda, harbiy vatanparvarlikning mazmun-mohiyati shu ta’rifda mujassam bo‘lganga o‘xshaydi. Biroq, fuqaro vatanparvarligi – huquqiy madaniyat va qonunga itoatkorlik haqidagi bilimlar tizimi bo‘lib, jamiyat va davlatdagi siyosiy-huquqiy hodisa-jarayonlarning yangiligini baholash, fuqarolik pozitsiyasiga egalik, xalqiga xizmatda doimo tayyor turish va konstitutsiyaviy burchini bajarishdan iboratligi ta’kidlash lozim.

Harbiy vatanparvarlik − umumxalq, umummilliy vatanparvarlikning alohida turi va ajralmas qismi bo‘lib, u O‘zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash sharoitida yana ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois harbiy vatanparvarlikning metodologik asoslari, ilmiy-nazariy xususiyatlarini o‘rganish, tadqiq va tahlil qilish har doim dolzarb axloqiy masala bo‘lib qolaveradi.

Kasb-hunar maktab yoshlarini “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish g‘oya”si ruhida tarbiyalashda harbiy vatanparvarlikning o‘rni va ahamiyati, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat mafkuraviy asoslarga, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga ham bog‘liq. Zero, bugungi kunda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bevosita Qurolli Kuchlar tizimi, harbiy soha, davlat organlari va jamoat tashkilotlari orqali amalga oshirilsa-da, oila, mahalla va ta’lim muassasasi uni bilvosita amalga oshirishga mas’ul hisoblanadi va bu borada har bir fuqaro milliy-ma’naviy va axloqiy jihatlarni yaxshi bilishi lozim.

Hozirgi davrda harbiy vatanparvarlikning asosini − yurt tinchligi belgilab beradi. Bugungi tahlikali zamonda Qurolli Kuchlarimiz qudratini oshirish, milliy armiyamizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizning mudofaa

https://wordlyknowledge.uz

qobiliyatini mustahkamlash, Vatanimiz sarhadlari daxlsizligini ko‘z qorachig‘iday asrash ushbu metodologiyaning asosiy sharti va kafolati hisoblanadi.

Biz tarixda o‘tgan juda ko‘plab milliy ma’naviy meroslarimiz, qahramonlarimiz bilan faxrlanamiz. Va ularni yoshlarimizni aksariyat qismi o‘z ideali deb bilishadi. Jumladan, “Avesto” adabiy yodgorligida, “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish” singari qahramonlik dostonlarida, “Temur tuzuklari”, “Mahbub ul-qulub”, “Turkiy Guliston yohud axloq” kabi ijtimoiy-axloqiy pandnomalarda harbiy vatanparvarlik g‘oyalarining targ‘iboti bilan bog‘liq masalalarni axloqshunoslik kontekstida o‘rganish g‘oyatda dolzarbdir. Chunki, yoshlarda g‘urur, or-nomus, sha’n, ishonch va sadoqat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirish bevosita harbiy vatanparvarlik shartlari asosida reallikka aylanadi.

Bundan tashqari, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning harbiy vatanparvarligini axloqiy ideal sifatida ulug‘lash, ularning vatanparvarlik fazilati bilan bog‘liq axloqiy qarashlari va hayotiy faoliyatlari aks etgan manbalarni chuqurroq tahlil qilish yoshlarda harbiy vatanparvarlikni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Basharti o‘zbek xalqining milliy-ma’naviyati va axloqiy qadriyatlarida harbiy vatanparvarlik yurt tarixi, taqdiriga chuqur hurmat bilan qarash, Vatan himoyasi yo‘lida fidoyilik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslarga xos fazilat sifatida qadrlanadi. Bu tuyg‘u “muhabbat”, “ishonch”, “sadoqat” kabi ma’naviy va axloqiy tushunchalar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin olganligi uchun ham davrlar mobaynida o‘z mavqeini yo‘qotmay kelayotgan falsafiy kategoriyadir. Vatanparvarlik o‘zida birlashtirish, yo‘naltirish, jipslashtirish, safarbar qilish kabi axloqiy sifatlarni mujassam etgani uchun o‘zbek xalqi ma’naviy merosiga taalluqli barcha manbalarda ulug‘lanadi. Bundan yuksak ma’naviy qadriyatimiz hisoblangan Islom dini ham mustasno emas.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi ,avvalambor, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog‘liq.

Shu maqsadda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan yoshlar uchun ularning sog‘lom tug‘ilishidan boshlab, toki mustaqil hayotga kirguniga qadar barcha zarur sharoitlar yaratib berilmoqda. Shulardan biri, Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Toshkent shahrida esa Islom sivilizatsiyasi markazining barpo etilishi islom dinining haqiqiy insonparvarlik mohiyatini, ma’rifiy islomni yoshlarimiz ongiga singdirishga hamda buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy va moddiy merosdan bahramand bo‘lishlariga xizmat qilishi Prezidentimiz tomonidan mohiyatan chuqur tushuntirildi.

Shundan kelib chiqib, 2017 yilda Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasi qo‘yilib, bir qator ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida tasdiqlanadigan mazkur Dastur doirasida yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qatiy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo‘lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, vatanparvarlik faqat insonga xos xususiyat bo‘lib, ma’no-mazmuni jihatidan ma’naviy fazilatlar turkumiga kiradi. Uning axloqiy asosini

https://wordlyknowledge.uz

muhabbat – burch − fidoiylik o‘rtasidagi o‘zaro dialektik bog‘langan ijtimoiy-ma’naviy faoliyat tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008. – B.29–30.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi, 3-soni. – 2017. – 10 yanv.

3. Voennыy ensiklopedicheskiy slovar. – Moskva: Eksmo-Press, 2007. − 1024 s.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – № 27. – 2017.

5. Mirziyoev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so‘zi. – № 247 (6741). – 2017. –

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz